


## Buxoro viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi

(2019-yil yanvar-oktabr\*)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi 8 026,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,1 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 1 121,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 126,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 6 904,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 5,7 % ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 839,9 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 % ga kamaygan) tashkil etdi.


### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

(mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari G'ijduvon va Vobkent tumalarida qayd etildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o‘shish sur‘atlari, %




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 26,0 % ga o‘ydi va 1 121,9 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 14,0 % ulushiga to‘g‘ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, 6 064,6 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 5,1 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,0 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, %


2018-yil  
yanvar-oktabr



2019-yil  
yanvar-oktabr



### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi, %



Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining ulushi bo‘yicha Buxoro (99,6 %), Shofirkon (99,0 %), Olot (99,1 %), Peshko‘ (99,2 %), Romitan (98,6 %), Jondor (98,5 %) tumanlari, Kogon shahar (97,8 %) va Qorako‘l (98,0 %), Qorovulbozor (94,1 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 14,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Vobkent (27,6 %), Kogon (29,1 %), G‘ijduvon (13,9 %) tumanlari va Buxoro shahriga (25,0 %) to‘g‘ri kelmoqda.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari (mlrd. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 121,9</b>	<b>126,0</b>	<b>6 904,6</b>	<b>105,7</b>
<i>tumanlar</i>				
<b>Olot</b>	1,8	106,3	211,3	114,8
<b>Buxoro</b>	1,7	114,9	407,7	104,7
<b>Vobkent</b>	124,5	155,0	326,3	96,4
<b>G‘ijduvon</b>	203,5	117,6	1 262,9	118,2
<b>Kogon</b>	42,8	179,4	104,2	90,6
<b>Qorako‘l</b>	19,6	171,5	679,2	106,9
<b>Qorovulbozor</b>	1,5	17,5	113,8	111,7
<b>Peshko‘</b>	2,3	126,7	285,4	105,3
<b>Romitan</b>	6,5	71,5	445,8	106,4
<b>Jondor</b>	6,4	38,0	412,7	105,7
<b>Shofirkon</b>	3,0	63,8	291,1	104,5
<i>shahar</i>				
<b>Buxoro sh.</b>	702,3	128,1	2 106,0	100,6

Kogon sh.


5,8

66,2

258,3


103,4

### Hududlarda kichik tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %




### Mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, %

2018-yil  
yanvar-oktabr



2019-yil  
yanvar-oktabr



Davlat mulki  
 Nodavlat mulki

## Mulkchilik shakllari bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mlrd. so'm)	davlat mulki (mlrd. so'm)
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>8 026,5</b>	<b>8 023,6</b>	<b>2,9</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	213,1	213,1	-
<b>Buxoro</b>	409,4	409,4	-
<b>Vobkent</b>	450,8	450,8	-
<b>G'ijduvon</b>	1 466,4	1 466,4	-
<b>Kogon</b>	147,0	147,0	-
<b>Qorako'l</b>	693,2	693,2	-
<b>Qorovulbozor</b>	120,9	120,9	-
<b>Peshko'</b>	287,7	287,7	-
<b>Romitan</b>	452,3	452,3	-
<b>Jondor</b>	419,2	419,2	-
<b>Shofirkon</b>	294,1	294,1	-
<b>Buxoro sh.</b>	2 808,3	2 805,4	2,9
<b>Kogon sh.</b>	264,0	264,0	-

2019-yil yanvar-oktabr oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 4 212,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,4 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi viloyatlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan.


## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so‘m	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>4 212,5</b>	<b>106,4</b>
<i>tumanlar:</i>		
<b>Olot</b>	2 174,6	112,7
<b>Buxoro</b>	2 493,5	102,7
<b>Vobkent</b>	3 269,1	105,7
<b>G‘ijduvon</b>	4 878,3	116,3
<b>Kogon</b>	1 911,4	103,4
<b>Qorako‘l</b>	4 273,9	105,4
<b>Qorovulbozor</b>	6 680,8	108,0
<b>Peshko‘</b>	2 377,6	103,5
<b>Romitan</b>	3 242,6	103,8
<b>Jondor</b>	2 434,1	101,0
<b>Shofirkon</b>	1 678,6	102,2
<b>Buxoro sh.</b>	10 072,7	105,5
<b>Kogon sh.</b>	4 342,7	101,3

Shuningdek, 2019-yilning yanvar-oktabr oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 3,1 % ni tashkil etib, 251,8 mlrd. so‘mga yetdi yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 % o‘shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 89,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari ulushiga to‘g‘ri kelmoqda.


## Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi hajmi

(mlrd. so'm)




## Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi ulushi, %

2018-yil  
yanvar- oktabr



2019-yil  
yanvar- oktabr



■ Davlat mulki  
■ Nodavlat mulki



**Mulkchilik shakllari bo'yicha  
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi**


	Jami (mln. so'm)	shu jumladan:	
		nodavlat mulki (mln. so'm)	davlat mulki (mln. so'm)
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>251 819,2</b>	<b>251 766,5</b>	<b>52,7</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	5 040,5	5 040,5	-
<b>Buxoro</b>	11 063,8	11 063,8	-
<b>Vobkent</b>	12 133,7	12 133,7	-
<b>G 'ijduvon</b>	39 791,1	39 791,1	-
<b>Kogon</b>	2 870,9	2 870,9	-
<b>Qorako'l</b>	25 275,5	25 275,5	-
<b>Qorovulbozor</b>	9 287,8	9 287,8	-
<b>Peshko'</b>	5 391,1	5 391,1	-
<b>Romitan</b>	16 550,6	16 550,6	-
<b>Jondor</b>	12 418,6	12 418,6	-
<b>Shofirkon</b>	10 300,1	10 300,1	-
<b>Buxoro sh.</b>	91 848,3	91 795,6	52,7
<b>Kogon sh.</b>	9 847,2	9 847,2	-

## BUXORO VILOYAT ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr)

Yil boshidan Buxoro viloyati bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 812,8 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,9 % ga kamaydi. Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-oktabr oyi yakunlariga ko'ra, 1 232,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2 % ga oshdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 68,0 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tumanlar bilan taqqoslanganda, Buxoro (99,7 %), Peshko' (88,9 %) tumanlarida va Kogon (93,5 %), Buxoro (90,3 %) shaharlarida yuqori bo'lgan.

### Yirik va kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, %



Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 32,0 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Qorovulbozor (99,2 %), Kogon (87,0 %), Qorako‘l (78,9 %), va Shofirkon (63,1 %) tumanlarida kuzatildi.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi


	Jami (mlrd. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Yirik korxonalar (mlrd. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %	Kichik korxonalar (mlrd. so‘m)	O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 812,8</b>	<b>98,4</b>	<b>580,8</b>	<b>85,1</b>	<b>1232,0</b>	<b>106,2</b>
<i>tumanlar:</i>						
Olot	68,7	101,8	19,4	105,1	49,3	100,6
Buxoro	81,0	101,5	0,2	123,4	80,7	101,4
Vobkent	63,5	99,5	39,3	98,6	24,3	100,9
G‘ijduvon	98,8	109,3	28,8	133,8	70,0	101,6
Kogon	309,8	101,6	269,7	102,0	40,2	99,5
Qorako‘l	28,8	129,2	22,7	139,6	6,1	100,9
Qorovulbozor	37,3	22,8	37,0	22,7	0,3	99,4
Peshko‘	247,5	104,6	27,5	144,6	220,0	101,1
Romitan	89,8	103,3	19,3	117,7	70,5	100,0
Jondor	108,4	101,2	30,1	107,6	78,4	99,0
Shofirkon	41,0	125,9	25,9	145,1	15,1	102,7
<i>shahar</i>						
Buxoro sh.	610,2	110,6	59,1	87,0	551,1	113,9
Kogon sh.	27,8	79,2	1,8	18,9	26,0	101,6

## Mulkchilik shakllari bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	<i>shu jumladan:</i>	
		nodavlat mulki (mlrd. so'm)	davlat mulki (mlrd. so'm)
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 812,8</b>	<b>1 812,8</b>	-
<i>tumanlar:</i>			
<b>Olot</b>	68,7	68,7	-
<b>Buxoro</b>	81,0	81,0	-
<b>Vobkent</b>	63,5	63,5	-
<b>G'ijduvon</b>	98,8	98,8	-
<b>Kogon</b>	309,8	309,8	-
<b>Qorovulbozor</b>	28,8	28,8	-
<b>Qorako'l</b>	37,3	37,3	-
<b>Peshko'</b>	247,5	247,5	-
<b>Romitan</b>	89,8	89,8	-
<b>Jondor</b>	108,4	108,4	-
<b>Shofirkon</b>	41,0	41,0	-
<i>shahar</i>			
<b>Buxoro sh.</b>	610,2	610,2	-
<b>Kogon sh.</b>	27,8	27,8	-

Joriy yilning yanvar-oktabr oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi 1 812,8 mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega sub'ektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi 1 812,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, %



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Qorovulbozor (22,8 %), Vobkent tumanlarida va (99,5 %) Kogon shahrida (79,2 %) qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bolimi  
Tel.:71-230-83-22  
65-223-75-63**